

GLOBALASHUV SHAROITIDA XALQARO TURIZM XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANISHI

Ivatov Irisbek

Toshkent Amaliy fanlar universiteti

“Tarmoqlar iqtisodiyoti” kafedrası professori, i.f.d.,

Tel: +998946940430

Annotatsiya

Ushbu maqola ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar sharoitida xalqaro turizm bozorining shakllanishi va rivojlanishining umumiy masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, xalqaro turizm bozorining asosiy shartlari va salohiyati umumlashtirilgan va guruhlashtirilgan, uning funksiyalari tizimlashtirilib, evolyutsion rivojlanish omillari tasniflangan, shuningdek, jahon iqtisodiyoti va uni tashkil etuvchi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun platformani shakllantirishda xalqaro turizm bozorining roli ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: xalqaro turizm bozori, dunyo mamlakatlari, milliy iqtisodiyot, jahon hududlari, globallashuv jarayonlari, xorijlik turistlar, turizm imkoniyati, bilimlarga asoslangan iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

Аннотация

Данная статья посвящена общим вопросам становления и развития международного туристского рынка в условиях социально-экономических изменений, обобщены и сгруппированы основные условия и потенциал международного туристского рынка, систематизированы его функции, факторы эволюционного развития. классифицируются, а также устойчивое развитие мировой экономики и составляющей ее национальной экономики, роль международного туристического рынка в формировании платформы для развития.

Ключевые слова: международный туристический рынок, страны мира, национальная экономика, мировые регионы, процессы глобализации, иностранные туристы, туристические возможности, экономика, основанная на знаниях, устойчивое развитие.

Abstract

This article is devoted to the general issues of the formation and development of the international tourism market in the conditions of socio-economic changes, the main conditions and potential of the international tourism market are summarized and grouped, its functions are systematized, evolutionary development factors are classified, as well as the sustainable development of the world economy and the national economy that constitutes it. the role of the international tourism market in the formation of the platform for

Key words: international tourism market, world countries, national economy, world regions, globalization processes, foreign tourists, tourism opportunity, knowledge-based economy, sustainable development.

KIRISH

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari dunyo mamlakatlari va jahon hududlarining bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi kuchaygan, fan-texnika rivoji ta'sirida umumplaneta miqyosidagi yangi muammolarni yuzaga kelishi va keskinlashuvi ortgan sharoitda, globallashtirish jarayonlarini yanada shiddatli ravishdagi tezlashishi bilan tavsiflanadi. Turizm sohasida yetarlicha darajada va har qanday xorijiy mamlakatlardan qolishmaydigan imkoniyatlarga egaligi bu borada ko'plab muvaffaqiyatlarga erishishimizni ta'minlovchi asosiy manba hisoblanadi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishdagi muammolarni bartaraf etish maqsadida rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishga alohida e'tibor berilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad mintaqalarga tashrif buyuradigan turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini yanada takomillashtirish va bozor talablariga to'liq javob beradigan turizm sanoatiga ega mintaqalar sifatida dunyo hamjamiyati e'tiborini jalb etishdir.

ADABIYOTLAR SHRHI

Turizm sohasi rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati, sohaga xos bo'lgan iqtisodiy munosabatlarning nazariy va amaliy masalalari, turizmda innovatsion faoliyatni rivojlantirishning amaliy muammolari va alohida masalalari to'g'risida ko'pgina chet el va mamlakatimiz olimlari tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jahonda salbiy siyosiy va iqtisodiy muhitning ba'zida keskinlashuvi va saqlanib turganligiga qaramasdan, turizm sohasini tashkil etishning ilmiy-uslubiy asoslari va iqtisodiy jihatlari turizmning maqbul rivojlanishi va ular bozorini tashkil qilish masalalarining ma'lum bir tomonlari olimlardan A. Aleksandrova [2], V.I. Andrianov [3], Ye.A. Быкова [4], I.Yu. Sevryukov [5], Ye.A. Djandjugazova(6), A.Yu. Baranova(7), V.Yu. Voskresenskiy(8), L.M. Gaydukevich(9) kabilarning ilmiy asarlari va tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Mamlakatimizda turizm tarmog'ining rivojlanish masalalari N.T. Tuxliyev, T.Abdullayeva [10], M.Q. Pardayev[10], H.A. Raximov [12] va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Ammo mazkur tadqiqotlarda shaharlar darajasida dunyo hududlarida turizmni rivojlantirish jarayonlari ko'rsatkichlar tizimining ilmiy-uslubiy jihatlariga yetarli e'tibor berilmaganligi ushbu maqola mavzuning tanlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA

Ushbu maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, raqobat kurashi sharoitida dunyo hududlarida turizmni rivojlantirish jarayonlari salohiyatidan foydalanish mexanizmlari ahamiyati va rolini tahlil qilishga qaratilgan. Raqobat kurashi sharoitida dunyo hududlarida turizmni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini oshirish vositalaridan biri sifatida foydalanish bo'yicha iqtisodiy tajribani umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi

bo'yicha kŷplab yangi davlatlar va hududlar turizm sohasini rivojlantirishga jadal kirishish masalalariga ham e'tibor qaratilgan va foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon iqtisodiyotida xizmatlar sohasining roli va o'rni oshib borayotgan bir paytda, turistik xizmatlar global iqtisodiyotda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning asosiy omillaridan biri sifatida maydonga chiqib, juda ko'plab mamlakatlarning rasmiy va norasmiy sektorlarida bandlikni ta'minlash va daromad olishda ustuvor yo'nalishlardan bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham boshqa hamdo'stlik mamlakatlari qatori xalqaro turizmni rivojlantirish chora-tadbirlarini ko'rib, o'zining milliy modeliga asoslangan turizmni shakllantirish uchun harakat qilmoqda. Shu bilan bir vaqtda xalqaro miqyosda qabul qilingan yo'nalishlar bo'yicha turizmni rivojlantirish ham muhim masalalardan hisoblanadi. Vaholanki, innovatsiyalar ta'sirida iqtisodiyot sohalarida yangi bilimlarga asoslangan innovatsion texnologiyalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda. Ayniqsa, bunday o'zgarishlar turizm tarmog'iga va uning korxonalariga xosdir.

Amalga oshirilgan izlanishlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, xalqaro turizm bozorini rivojlantirishda mehmonxona komplekslari bilan birgalikda, mehmonxona hisoblanmagan, ammo uning funksiyasini bajaradigan obyektlardan ham keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, turistlarni joylashtirishda 25 foizdan ko'proq turistik fondlar hissasi aynan xususiy mehmonxonalarga to'g'ri kelar ekan. Turistlarni joylashtirishda, odatda bunday obyektlar juda qulay va sodda bo'lib ularni samaradorligi yuqoridir. Mehmonxonalarda joylashish yagona tunash joyi emas. Kempinglar, pansionatlar, yotoqxonalar, shuningdek to'plagan xususiy kvartiralarda, xonadonlarda ham turistlar uchun tunash joyini tashkil qilish imkoniyati bor. O'zbekistonda xususiy mehmonxonalar sonini ko'paytirish ham shu kunning muhim talablaridan biridir. Uning hissasi O'zbekistondagi mehmonxonalar umumiy sonining atigi 5 foizini tashkil etuvchi kempinglar turizm uchun qulay maskanlar hisoblanadi. Ular shaxsiy xonadonlar, dam olish uylari, yoshlar uylari, turistik maskanlar, oilaviy klublar kabi joylarni o'z ichiga oladi. Turizmga kempinglar keng tarqalgan va samarali joylashuv maskanlari sifatida mashhur. Biroq, O'zbekiston sharoitida kempinglarni rivojlantirish uchun keng imkoniyat va sharoitlar mavjud bo'lsa-da, ulardan foydalanish va ularni tashkil etishga yetarlicha e'tibor qaratilmayapti.

Vaholanki, xalqaro turizm yo'nalishi bo'yicha tashrif buyuradigan turistlar uchun kempinglar qulaylik yaratishi mumkin. Ayniqsa, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy qiyinchiliklar davrida ichki turistlar uchun ham bunday maskanlardan foydalanish maqbul va qulaydir. Bunday maskanlar nafaqat xalqaro turistlar, balki O'zbekiston fuqarosi bo'lgan sayyohlar uchun ham jozibador bo'lib, ulardan foydalanishni rag'batlantirish maqsadga muvofiqdir.

Olib borilgan sotsiologik kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, ko'pchilik turistlar "O'zbekistonga yana kelish istagingiz bormi?" degan savolga "Men albatta yana kelaman. Bu yerdagi odamlardagi mehmondo'stlik, samimiyat va ularga bo'lgan

e'tibor meni lol qoldirdi," deb javob berishgan. Ular O'zbekistonda ko'rish va bilishga arziydigan joylarning ko'pligini, tahsinga sazovor ekanini qayd etishgan.

Shu bilan birga, turistlar xizmat ko'rsatish sifati talab darajasida emasligini ham ta'kidlashgan. Xususan, xalqaro turizm yo'nalishidagi shaharlardagi yirik mehmonxonalarda ayrim xodimlarning qo'polliqi, xizmat vazifalarini suiiste'mol qilishlari va bu holatlar natijasida turistlarning safardan mamnun bo'lmaganliklari kuzatilgan. Bunday holatlar, tabiiyki, turistlar oqimining nafaqat xalqaro, balki ichki yo'nalishlarda ham keskin kamayishiga olib kelmoqda.

O'zbekistonda turizm industriyasi va infrastrukturasini, shu jumladan, turistik xizmat sohasi umummamlakat miqyosida olib borilgan xususiylashtirish hamda bozor iqtisodiyoti tizimiga o'tish jarayoni talablariga mos holda qayta isloh qilindi. Ammo bu sohada hana qator muammolar, hatto uning rivojiga g'ov bo'lib turgan "to'siqlar" ham mavjud. Mamlakatimiz turizm tizimi taraqqiyotining jadal rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatib turgan omillardan biri turistik xizmatlar bozorining talab darajasida emasligidir. Bu esa, o'z navbatida, turizm industriya-sining katta turistik resurslarga ega bo'lgan hududlarda sohani rivojlantirish imkoniyatini chegaralab qo'yadi.

Xalqaro turizm bozorini rivojlanishi karvon yo'llarini qayta tiklash masalalari bilan ham bevosita bog'liqdir. Chunki, O'zbekiston avvallari va hozir ham bu qadimiy yo'llarning markazida turibdi va ularni tiklash bo'yicha o'tkaziladigan tadbirlarda uning ishtiroki juda ham zarurdir. Ayniqsa, bu jarayon yo'l tizimini qanday darajada rivojlanganligi bilan bog'liqdir. Shuni hisobga olib, respublikada yo'l tarmoqlarini qurilishiga katta e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar nafaqat turizm sohasi rivojlanishining jadallashishiga, balki mamlakatimizning jahon hamjamiyatida alohida o'rin tutganligi sababli, oldin imkoni bo'lmagan yangi turistik xizmat turlarining yaratilishiga olib kelmoqda. Bu holat turizm xizmat bozori rivojlanishi va boshqarish strategiyasiga har tomonlama rejalashtirilgan hamda chet ellik va mahalliy tur-mahsulot yetkazib beruvchilarning qiziqishlari balansiga amal qiladigan yondashuvni talab etadi. Bir tomondan, o'zbekistonlik tadbirkorlar qiziqishlarining himoyasini ta'minlash, ikkinchi tomondan esa, turizm bozorida chet ellik tadbirkorlar ishtirokida raqobatli muhit yaratish kerak. Bularning barchasi, so'zsiz, bozorda o'zbekistonliklarning faoliyatini rag'batlantirishga olib keladi. Iqtisodiyot infratuzilmasining asosini tashkil etgan transport, telekommunikatsiya, moliyaviy xizmatlar rivojlanishining davom etishi turizm xizmat bozori rivojlanishi uchun ham katta ahamiyatga ega. Shuni ham aytib o'tishimiz lozimki, turizm sohasi katta mablag' sarflanishini talab etmaydigan, ijtimoiy barqarorlik omili sifatida xizmat qiladigan va hududda yangi ishchi o'rinlarning yaratilishini ta'minlaydigan xizmat sektorlaridan biridir.

O'zbekistonni jahon bozoriga chiqishi uchun yangi yo'l tarmoqlari qurilmoqda va qayta ta'mirlanmoqda. Tez yurar magistrallari loyihasi Buyuk Ipak yo'lini tiklash dasturining asosini tashkil etib, Yevropani Xitoy Xalq Respublikasi va barcha Janubiy-Sharqiy Osiyo mamlakatlari bilan bog'laydi. Bu yo'llardan foydalanish natijasida avtomobil transporti orqali xalqaro turizmning rivojlanishi, savdo-sotiqni

mamlakatlararo yo'lga qo'yilishi ta'minlanib, hududlar iqtisodiyotini ko'tarish va aholi turmush farovonligini yaxshilash uchun katta imkoniyatlar yaratiladi.

Xalqaro turizm dunyo mamlakatlari o'rtasida notekis rivojlanib, bu ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Xalqaro turizmni eng rivojlangan yeri G'arbiy Yevropa mamlakatlari hisoblanib, bu regionning hissasiga xalqaro turizm bozorining 75% dan ortig'i va 60%ga yaqin valyuta tushumlari to'g'ri keladi. Taxminan 20%ga yaqini Amerikaga, 10% dan kamrog'i Osiyo, Afrika va Avstraliyaga to'g'ri keladi. Turizm sohasini G'arbiy Yevropa mamlakatlarida rivojlanishining asosiy sabablaridan biri shundaki, 2-jahon urushidan keyingi yillarda, bu yerlarda xalqaro turizmni yo'lga qo'yish orqali iqtisodiyotni tiklash asosiy yo'nalish hisoblangan. Buni o'z vaqtida tushungan biznesmenlar, tadbirkorlar oz pul sarflab, ko'proq foyda olishni aynan shu xalqaro turizm sohasida ko'rganlar. Shuning uchun ham hozirgi kunda G'arbiy Yevropa mamlakatlarida xalqaro turizm sohasidan olinadigan daromad ularning jami daromadlarida salmoqli hissani tashkil qiladi.

Butun jahon turistik tashkilotining bashoratiga ko'ra 2025-yilgacha turizmning o'rtacha yillik o'sish sur'ati Yevropada — 4,1%, Yaqin Sharqda 7,8%, Janubiy Osiyoda 7,5%, Sharqiy Osiyoda — Tinch Okeani hududlarida — 8,2% bo'lishi kerak. Bu raqam O'zbekiston uchun 15% qilib aniqlangan va Osiyo qit'asiga qaraganda 2 barobar yuqori qilib belgilangan. Buning asosiy sabablaridan biri O'zbekiston Markaziy Osiyo mamlakatlari ichida hududiy joylashishi, transport qatnovini juda ko'plab davlatlar uchun mavjudligi va nihoyat O'zbekistonga aynan faqat turizm maqsadida keluvchilar sonining ortib borishini nazarda tutgan holda amalga oshirilishidan iboratdir.

Istiqbolli rivojlanish masalalari haqida to'xtalib, shuni ta'kidlash lozimki, uning hammabop yagona usuli yo'qligini ta'kidlaymiz. Xalqaro turizmning rivojlanish istiqbolini aniqlashda statistik istiqbolni belgilash usullaridan foydalangan holda turistik maqsadlarda O'zbekistonga xalqaro yo'nalishda tashrif buyurgan turistlar sonini 2015-2022-yillardagi o'sish sur'atini hisobga olib, 2025-yilda bu yerga tashrif buyuradigan turistlar soni 10 mln. dan ko'proq, shu jumladan uzoq xorijdan keladiganlar soni 4 mln. kishidan ko'proq bo'lishi hisoblab chiqildi. Har bir turist uchun sarflanadigan xarajatlar asosida valyuta tushumlarining ham taxminiy hisob-kitobini qilish mumkin.

Xalqaro turizm marketingi jarayoni mamlakatga imkoni boricha ko'p xorijlik turistlarni jalb qilishga qaratilgan bo'lishi kerak. Ayniqsa, xarajat borasida turizm uchun ko'p sarflaydigan turistlarni mamlakatga jalb qilish muhimdir. Bizga ma'lumki, jahon bozorida Yaponiyadan tashrif buyuradigan turistlarga ega bo'lish uchun o'ziga xos raqobat mavjud bo'lib, ko'p davlatlar aynan ularni o'z yurtlariga tashrif buyurishini istashadi. Chunki Yaponiyadan tashrif buyurgan turist o'zining safari chog'ida amalga oshirgan xarajatlari bilan birinchi o'rinda turadi. Agar Yaponiyalik turist Yevropaga kelsa, u boshqa turistlarga qaraganda 2-3-marta ko'p pul sarflaydi. Ayrim mamlakatlarda undan ham ko'p miqdorda pul sarflashadi. Shuning uchun ham O'zbekistonga yaponiyalik turistlarni ko'proq jalb qilish masalasiga e'tiborni qaratishimiz lozim.

O'zbekiston diyorida xorijliklarni o'ziga jalb qiladigan yerlardan biri, bu Farg'ona vodiysi bo'lib, uning Namangan, Farg'ona, Andijon, Qo'qon shaharlari YUNESKO tomonidan Jahon merosi umuminsoniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritilgandir. Bu yerdagi madaniy va tarixiy yodgorliklarning bebaholigini va umuminsoniy mulkni tomosha qilishga ko'plar havas qilishadi.

O'zbekistonning Farg'ona vodiysini o'ziga jalb qiluvchi jihatlari shundaki: birinchidan, uning 30 foizdan ortiq hududida tog'-o'rmon, tekislik, bahavo joylarning borligi tufayli dam olish, sayr qilish mumkin; ikkinchidan, uning hududida 1000 mingdan ortiq me'morchilik va arxeologik obyektlar bo'lib, ularning 400 ga yaqini davlat tomonidan qo'riqlanadi; uchinchidan, ko'plab san'at obyektlari va muzeylari mavjud bo'lib, turistlarning foydalanishi uchun ham doim imkoniyat yetarlichadir. Shuningdek, tur-marshrutlarni Andijon, Namangan, Farg'ona, Qo'qon, umuman Farg'ona vodiysi shaharlari hisobiga xam ko'paytirish imkoniyatlari mavjuddir. Ayniqsa, Marg'ilon shahri bo'yicha "Atlas va ipak shahri" yo'nalishi turistlar uchun bebaho tur-marshrut hisoblanishi mumkin. Bu esa xalqaro turizmni rivojlantirish natijasida, turizm tizimining moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilanish imkoniyatlarini beradi.

Umuman turizmni rivojlantirish yo'llari juda xam turli-tumandir. Ularning qaysi biridan foydalanish insonlarning o'ziga bog'liq. O'zbekiston aholisi uchun, bozor iqtisodiyoti sharoitida ko'proq savdo sayyohligi ahamiyatli bo'lib qoldi. Albatta bunday sayyohlikda import sayyohligiga qaraganda eksport sayyohligi ustun turadi. Bu esa ma'lum darajada O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun ham, hozirgi kunning asosiy maqsadi, talabi — respublikada chetdan keluvchilar uchun xizmat darajasini kuchaytirish zarurligidir. Shu tadbir orqali mamlakat xazinasini valyuta bilan ko'proq ta'minlash imkoniyati tug'iladi. O'zbekistonning boy tabiiy va madaniy merosi hamda milliy salohiyatidan to'la foydalangan holda, uning barqaror rivojlanishini ta'minlash, tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkoniyatlari mavjud. Ta'kidlash joizki, bugungi kunda respublikamizning yalpi ichki mahsulotida turizm industriyasining ulushi juda foizni tashkil etadi.

Respublika iqtisodiyotida turizm sohasi ham boshqa ishlab chiqarish sohalari kabi ixtisoslashgan xo'jaliklar qatoriga kirib, mamlakatni iqtisodiy rivojlantirish vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotning restrukturizatsiyasi bozorni o'rganish natijalariga asoslangan marketing strategiyalarini ishlab chiqarish bilan bir qatorda olib borilishini hisobga oladigan bo'lsak, turistik xizmatlar, ayniqsa, ularning bozor tarmog'idagi sohasi bo'lmish strategik marketingni o'z ichiga olgan boshqaruvning progressiv usullariga katta ehtiyoj sezmoqda. Hozirgi iqtisodiyot xo'jalik faoliyatining amalda barcha sohalarida intensiv tarzda rivoj topayotgan innovatsion jarayonlarning faol ta'sirida shakllanib bormoqda. Turistik biznes ham bundan istisno emas. Shuning uchun turistik xizmatlarning jahon bozorida raqobatchilik faqat mamlakatimizdagi kompaniyalarning xo'jalik faoliyati amaliyotiga ko'pchilik hollarda yirik investitsiya xarajatlari bilan bog'liq bo'ladigan innovatsiyalarni doimiy tarzda joriy etgan holda ta'minlanishi mumkin. Bunda

innovatsion faoliyat bir tizimli asosda yuritilishi, turistik kompaniyalarni rivojlantirishning strategik rejalaridan zaruriy tarkibiy qism sifatida o'rin olishi lozim. Biroq tadqiqotlarning ko'rsatishicha, O'zbekistondagi turistik biznes kompaniyalari shu paytgacha ham ko'p jihatdan taktik maqsadlarni yo'nalish qilib olishadi, strategik menejmentning hozirgi imkoniyatlaridan foydalanishmaydi, innovatsion xizmatlarni ishlab chiqarish va joriy etishga lozim darajada e'tibor berishmaydi.

Milliy turistik korxonalardagi menejment sifatini jiddiy yaxshilash talab qilinadi. Iste'molchilarning ularga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatiga nisbatan taqdim etayotgan reklamatsiyalarning yuqori darajada ekanligi shuning oqibati bo'lmoqda. Biroq globalashtirish davrida turistik biznesni boshqarish sohasidagi innovatsion strategiyani ishlab chiqarish muammosi respublikadagi va jahondagi hozirgi iqtisodiy shart-sharoitlarni hisobga olib, yanada tadqiq qilishni taqozo etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida bayon qilinganlardan kelib chiqib aytish joizki, turizm mamlakat iqtisodiy salohiyati va qudratini jahon miqyosiga ko'tarayotgan va ayni bir paytda, aholi turmush darajasi va sifatini shakllantirishda faol ishtirok etayotgan hamda uni oshirishda yuqori samara berayotgan sohadir. Shu jihatdan ushbu soha bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilish, ularning bozor talablariga javob beradigan majmuaviy yechimlarini topish va amaliyotga samarali joriy etish bugungi kunning, ayniqsa, istiqbolda aholi turmush darajasini oshirishning strategik ahamiyatga ega o'ta dolzarb masalalaridan biri sifatida qaralmog'i lozimdir.

Bozor iqtisodiyotining shakllanish jarayoni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarda ma'lum bir darajada o'zgarishlar sodir bo'lishini taqozo etib, sifat ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi. Xalq xo'jaligining, umuman iqtisodiyotning barcha sohalarida bozor tizimlari o'z ifodasini topib, uning yanada yangi qirralari ko'zga tashlanmoqda. Insonning qobiliyatini saqlash va rivojlanishi uchun qaratilgan ijtimoiy strategiyaning muhim pallalaridan biri bo'lgan turizmning sezilarli darajada faoliyat ko'rsatishi uchun yetarli shart-sharoitlar va imkoniyatlar mavjud.

O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yuzaga kelayotganligi, turizmning respublika iqtisodiyotiga yanada integratsiyalashishi mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyoti tajribasidan ma'lumki, turizm sohasi mamlakat xazinasini uchun zarur bo'lgan valyuta tushumini ta'minlash, yangi ish joylarini vujudga keltirish va shu bilan birgalikda aholining turmush darajasini ko'tarish uchun xizmat qiladi.

O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotida turizm xizmat bozorining tutgan o'rni hali to'la e'tirof etilmagan. Biroq, O'zbekistonda aynan ichki turizm xizmat bozoriga bo'lgan qiziqish kuzatilmoqda. Ehtimol, aynan turizm sohasi kelajakda mamlakatimizning iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradigan soha bo'lishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат

Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. //Халқ сўзи, 2020 йил, 30 декабрь.

2. Александрова А.Ю. Международный туризм: учеб. пособие для вузов. — М.: Аспект Пресс, 2011. — 464 с.

3. Андрианов В.И. Проблемы развития внутреннего и въездного туризма / В.И. Андрианов // Современные проблемы сервиса и туризма. 2015. — №3. —

4. Быкова Е.А. Влияние туризма на экономику стран / Е.А. Быкова, И.В. Фомин // Туризм и гостеприимство сквозь призму инноваций: Сборник статей III научно-практической конференции. Под научной редакцией Е.М. Крюковой. — Москва, 27 февраля 2018 года.

5. Севрюков И.Ю. Рынок туристских услуг: современное состояние и тенденции развития // Экономика: теория и практика. — 2016. — №4 — С. 43 - 48.

6. Джанджугазова Е.А. Маркетинг туристских территорий : учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлению подготовки — Туризм / Е.А. Джанджугазова. — М.: Академия, 2008.

7. Баранова А. Ю. Организация предпринимательской деятельности в сфере туризма: учеб. пособие / А. Ю. Баранова. — М. : ИНФРА-М, 2012. — 180 с.

8. Воскресенский В.Ю. Международный туризм: инновационные стратегии развития : учеб. пособие / В. Ю. Воскресенский. — М. : ЮНИТИ-ДАНА, 2007. — 159 с.

9. Гайдукевич Л.М. Международный туризм в системе взаимодействия стран Центральной и Восточной Европы в конце XX – начале XXI века – Минск: 2007. – 300 с.

10. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. Т. . Узбекистон миллий энциклопедияси. 2006. — 423 с.

11. Пардаев М.Қ., Мусаев Ҳ.Н. Хизмат кўрсатиш, сервис ва туризм соҳаларини ривожлантириш: муаммолар ва уларнинг ечимлари. -Т.: Иқтисод-молия, 2008.

12. Пардаев М.Қ., Холикулов А.Н., Рахимов Ҳ.А. Меҳмонхона хўжаликларида самарадорлигини ошириш муаммолари. Монография. –Т.: “Иқтисодиёт”, 2013.